

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYDAROVA MALIKA DJAMSHITOVNA

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNI
TADBIQ ETISH MEXANIZMLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xaydarova Malika Djamshitovna

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish
mexanizmlari..... 3

Хайдарова Малика Джамшитовна

Механизмы внедрения индивидуального подхода к процессу
начального образования..... 27

Xaydarova Malika Djamshitovna

Mechanisms for implementing an individual approach to the primary
education process..... 52

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 56

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYDAROVA MALIKA DJAMSHITOVNA

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNI
TADBIQ ETISH MEKANIZMLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish mexanizmini takomillashtirish, o'quvchilarning individual texnik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlar va ma'lumotlarni idrok etishlarini optimallashtirish, ta'lim oluvchi shaxsida dunyoni individual o'zlashtirish, ularning individual-estetik ehtiyojlarini qondirishning variativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning individual o'zlashtirish imkoniyatlarini nazarda tutuvchi ta'lim muhitini yaratish, individuallashtirish ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish"¹ qayd etilgan bo'lib, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Vetnam, Xitoyda individual yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishga doir amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarida individuallashtirishning tarbiyaviy kuchi vositasida o'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirishga undash, individual xususiyatlarga ko'ra ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish, shunga muvofiq holda qulay shart-sharoit yaratishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual tipologik xususiyatlari, axborotlarni qayta ishlay va baholay olishlariga alohida e'tibor berilib, ta'limda o'zlashtirish imkoniyatlari, ta'lim oluvchilarning gender tengligini hisobga olgan holda jarayonni individuallashtirish, maqsadga yo'naltirilgan boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish mexanizmini takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanga oid va tayanch kompetensiyalarini tizimli shakllantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" ta'lim tizimining ustivor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan. Bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risida Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga

¹ <https://sdg.iisd.org/news/world-education-forum-2015-adopts-incheon-declaration-on-education-for-all-by-2030>.

ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda boshlang‘ich ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish, boshlang‘ich ta‘limga nisbatan turli innovasion yondashuvlarni tadbiq etish bo‘yicha B.S.Abdullaeva, B.R.Adizov, N.G‘.Dilova, G. Ibragimova, X.I.Ibragimov, U.Q.Maqsudov, B.B.Ma‘murov, M.H.Mahmudov, G.N.Najmiddinova, X.P.Nazarova, R.Nurjanova, R.G.Safarova, N.T.Tosheva, G.Q.Xasanova, Z.A.Xolmatovalar tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.A.Averin, M.K.Akimova, P.P.Blonskiy, L.I.Bojovich, J.S.Vgotskiy, O.S.Grebenyuk, V.V.Zaysev, A.Z.Zak, M.A.Kalugin, M.V.Matyuxina, P.L.Meytuv, O.N.Pereligina, E.M.Sagilyan[107], V.V.Xolmovskaya, G.A.Sukermanlarning tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar taraqqiyotida boshlang‘ich ta‘limning o‘rni, insonning ijtimoiy rivojlanishida individuallikning ahamiyati, individuallashtirish texnologiyalariga oid masalalar yoritib berilgan.

Shu bilan bir qatorda shaxsni individual ijtimoiy rivojlantirish masalalari xorij olimlari I.Blau, N.Benolol, Linda D.Breeman, S.K.Kansu, D.Krawford va R.Bodine, G.Fessakis, K.Gabor, A.Giddens, A.Hargreaves, S.Holland, R.Sears, G.Wegner, E.E.Werner, K.White, H.Widdelkabi faylasuf, pedagog, psixolog, sotsiolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq “Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish texnologiyasi” mavzusi ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lgan emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni tadbiq etishning dolzarb muammo va yechimlari” nomli ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan. (2021-2025 yy)

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish mexanizmini takomillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish mexanizmlari o‘quvchilarga intellektual-ijodiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan individual variativ ijodiy topshiriqlarni takomillashtirish;

boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishga ta‘sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning

psixo-fiziologik xususiyatlari va o'zaro bog'liqligini izchil ta'minlash asoslarini asoslash;

boshlang'ich ta'lim individual yondashuvni tatbiq etish modeli o'zaro ta'sirchan kolloborativ komponentlarini aniqlashtirish;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish mexanizmi samaradorligini aniqlash mezonlari va baholash ko'rsatkichlari o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyatlarini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich ta'limga individual yondashuvni tadbiq etish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Namangan, Sirdaryo hamda Buxoro viloyatlaridagi umumta'lim maktablaridan 649 nafar o'quvchilar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish mexanizmlari o'quvchilarga ijodiy intellektual sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan individual ijodiy-variativ topshiriqlarni kiritish hamda ish mustaqil faoliyatiga doir pedagogik vazifalar mazmuni va mohiyatini individual o'rganish shakllari dinamikasini o'sib borish tartibida takomillashtirilgan;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixo-fiziologik jihatlari, ekstremal vaziyatlarda individual sifatlarini namoyon etish, o'z-o'zini obyektiv baholash layoqati, individual faoliyat ko'nikmalari uyg'unligini izchil ta'minlash asosida dalillandi;

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning metodik ta'minoti (reproduktiv, qisman izlanish, kreativlik bosqichlari mazmuni) individual yondashuv darajasini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik parametrlarning pragnostik xususiyatlariga erkinlik berish asosida aniqlashtirilgan;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish jarayoni samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini takomillashtirishga (muammoli, loyihaviy, hamkorlik, pedagogik qonuniyatlar) oid ilmiy amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etishning xorijiy va milliy modellari qiyosiy-tahliliy holda asoslangan hamda pedagogik imkoniyatlari aniqlangan;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish imkonini beradigan ish shakllari, o'quv topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar aniqlangan va pedagogik jarayon modeli ishlab chiqilgan;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etish samaradorligini belgilashning mezon ko'rsatkichlari va baholash darajalari aniqlangan;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etish mexanizmi takomillashtirilgan hamda uni amaliyotga tatbqiq etish yuzasidan berilgan ilmiy asoslangan taklif, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan yondashuvlar nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik usullar yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etishga yo'naltirilgan muayyan tuzilma, ushbu mexanizmning psixologik-pedagogik asoslari, uni amaliyotda qo'llashning qulay shart-sharoitlari hamda ishlab chiqilgan takliflardan samarali foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar va yondashuvlardan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash borasidagi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagog-o'qituvchilarning pedagogik mahorati boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etish imkonini beradigan ilg'or tajribalar, yondashuvlar va innovatsion metodlar bilan boyitildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar:

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etishga yo'naltirilgan individual ijodiy-variativ topshiriqlarni kiritish hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalari boshlang'ich ta'lim yo'nalish talabalari uchun nashr etilgan "Технологическое образование и методика его обучения" (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 4 martdagi 55-son buyrug'i asosida berilgan №570267 son nashr ruxsatnomasi) nomli darslik mazmuniga singdirilgan. Natijada, boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etish mexanizmi o'quvchilarga ijodiy-intellektual sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan individual ijodiy-variativ topshiriqlarni kiritish asosida takomillashtirilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'zini obyektiv baholash layoqati psixo-fiziologik xususiyatlari, ekstremal vaziyatlarda individual yondashish, individual faoliyat ko'nikmalari barqarorligini izchil ta'minlashga doir takliflar va o'quvchilarning turli shakldagi individual topshiriqlarni intensiv bajarish hamda boshlang'ich sinf o'quvchisining bilish ko'nikmasini dinamik rivojlantirishga oid takliflar "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 4 martdagi 55-son buyrug'i asosida berilgan №55236 son nashr ruxsatnomasi) nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan. Natijada, boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq

etish modelining o'zaro ta'sirchan kolleborativ komponentlari mazmuni aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual ijtimoiy ko'nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish, hayotiy va ijtimoiy-madaniy tajribalarni mazmunan qulaylashtirish hamda individual imkoniyatlarini kengaytirib beruvchi subyektiv muammolarni hissiy tushunishga doir tavsiyalar "Технологическое образование и методика его обучения" (Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2024 yil 4 martdagi 55-son buyrug'i asosida berilgan №570267 son nashr ruxsatnomasi) nomli darslik mazmuniga singdirilgan. Natijada, boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish samaradorligini belgilash mezonlari va baholash ko'rsatkichlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining asosiy mazmuni va g'oyalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konfrensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika, 3 ta maqola xorijiy mamlakatda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning asosiy matni 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich ta'limga individual yondashuvni tadbiiq etish jarayonining nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish – ijtimoiy pedagogik zaruriyatligi, boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etishning o'ziga xos xususiyatlari hamda individual ta'lim muammosini hal qilishda turli xil yondashuvlar yoritib berilgan.

Tadqiqotga oid kuzatish va tajribalarga ko'ra hozirgi vaqtda boshlang'ich ta'limda quyidagi ziddiyatlar yuzaga kelgani aniqlangan:

maktabdagi ustunlikka ega bo'lgan bilimlarni berishning frontal shakllari va ularni o'zlashtirishning individual xususiyati o'rtasida;

boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etishning ahamiyati va o'zgargan ijtimoiy-pedagogik vaziyat sharoitlarida mazkur prinsipni amalga oshirishga o'qituvchilarning tayyorgarliklari o'rtasida.

Pedagogika fanidagi mavjud tadqiqotlar o'qitishni individuallashtirishni tashkil etish muammosini to'liq qamrab olmaydi, jumladan, ijtimoiy taraqqiyotning maqsad va qadriyatlarining o'zgarishi bilan insonning individualligiga, shaxs sifatlari va xususiyatlariga e'tibor keskin oshdi. Bundan tashqari, so'nggi vaqtlarda nodavlat ta'lim muassasalari paydo bo'lib, ularda har bir sinfdagi o'quvchilarning soni sezilarli qisqargan va bu har bir o'quvchining psixologik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olish asosida ta'lim sifatini yuqori darajada tashkil etishga imkon beradi.

Pedagogika ensiklopediyasida "Individual yondashuv metodi – (lot. individuum – bo'linmas) pedagogik jarayonni o'quvchining individual o'ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalar)ni e'tiborga olgan holda amalga oshirish metodi" sifatida talqin etiladi.

Ta'limni individuallashtirish – uni har bir o'quvchining o'z individual xususiyatlariga moslab tashkil etish demakdir. Individuallashtirish deganda har bir o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga oladigan o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini boshqarish tizimi tushuniladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual tayyorgarliklarini ta'minlashda ularning layoqatlarini alohida e'tiborga olish lozim. Agar o'quvchi o'z tayyorgarligi davomida faol harakat qilmasa, uning layoqati tashqi ta'sir va sharoitlar natijasida o'z-o'zidan qobiliyatga aylanmaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llaridan biridir. Individual yondashuvning ahamiyati shundaki, o'quvchi ta'lim jarayonining asosiy subyekti sifatida o'qituvchi hamda o'quv materiallari bilan muloqotga kirishadi. Bu o'z navbatida, shaxsning ijobiy fazilatlarini aniqlash; shaxsni muntazam psixologik-pedagogik tashxislash; ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs xususiyatlarini hisobga olish; shaxs rivojlanishini bashorat etish va boshqalarni qamrab oladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish quyidagi holatlarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'quvchilar guruhiga xos bo'lgan emas, balki har bir o'quvchiga xos umumiy belgilar hisobga olinadi;

o'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan o'ziga xosliklarga ta'limni individuallashtirish jarayonida hisobga olinadi;

aksariyat hollarda ta'limni individuallashtirish jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlari va salomatliklariga ham e'tibor qaratiladi;

o'quv jarayonini individuallashtirish qisman amalga oshiriladi va u umumiy o'quv vaziyati bilan uyg'unlashtiriladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etishda quyidagi talablar nazarda tutiladi:

1) o'quvchilar faoliyatini umumiy tarzda tashxislovchi, bashoratlovchi, ta'limiy, bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi, optimallashtiruvchi;

2) o'quvchilarni o'ziga xos tarzda moslashtiruvchi, tuzatuvchi va hokazo.

O'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishga oid turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan, mutaxassislar quyidagi talqinga ko'proq moyillik bildirganlar:

1) ta'limni individuallashtirish – bu o'quv jarayonini tashkil etish, uning yo'llari, usullari, o'qitish maromini tanlashda o'quvchilarning o'ziga xosligi, ularning rivojlanganlik darajasi va o'qish layoqatini hisobga olish demakdir.

2) o'quv jarayonini tabaqalashtirish – o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarni muayyan o'ziga xos jihatlariga ko'ra alohida o'qitish imkonini beruvchi guruhlarga ajratish demakdir.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etishda bir qator kamchiliklar aniqlandi:

sinf-dars tizimida o'qituvchining har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanish imkoniyatining chegaralanganligi;

u yoki bu o'quv predmetini o'qitish jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish natijasida ta'lim jarayonining samaradorligiga putur yetishi;

sinfdagi barcha o'quvchilar ham o'quv materiallarini o'zlari mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega emasliklari.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etish jarayonini quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

har bir o'quvchiga individual yondashgan holda ta'lim-tarbiya berish;

o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini tanlash.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etishda o'quvchilarning yoshga oid va psixologik xususiyatlarini inobatga olish lozim:

1. O'yinga moyillik. 2. Bir maromdagi faoliyat bilan uzoq shug'ullana olmaslik. 3. Tajribaning yetishmasligi sababli axloqiy tasavvurlarning yetarli aniqlik emasligi. 4. Shuningdek, amalga oshirish tartibi va amaliy qo'llash o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. 5. Kattalar va tengdoshlari bilan muloyim muloqotni qo'llashning bir tekis emasligi (kundalik hayotda va uyda, maktabda va ko'chada).

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi:

boshlang'ich sinflarda o'qitish maromi va izlanuvchanlik qobiliyatlarini inobatga olish, bunda o'quv topshiriqlarini individuallashtirish;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan ehtiyojlarini rivojlantirish, bunda topshiriqni har bir o'quvchi tomonidan bajarilishini ta'minlash;

boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bunda o'qitishni guruhli, individual va mustaqil ish shakllariga asoslangan holda tashkil etish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqillik, mehnatsevarlik, kreativlikni shakllantirish, bunda darsning aksariyat qismini individual ishlashga ajratish imkoniyatidan foydalanish.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbqiq etishda bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning qaror topganligi;

fuqarolar ma'naviy-axloqiy yetukligini ta'minlash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi;

ta'lim-tarbiya ishlarining muayyan maqsad asosida tizimli, uzluksiz va izchil olib borilayotganligi;

tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega subyektlar imkoniyatlarining yagona ijtimoiy maqsadni amalga oshirilishiga yo'naltirilganligi;

shaxs omilining ijtimoiy munosabatlar jarayonida yetakchi mavqega ega bo'lishi va boshqalar.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuv tadbiriq etilganda quyidagilarga erishiladi:

jamoada munosib o'rin topa olmagan hamda maqsadga muvofiq shakllanmagan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni aniqlash va tashxislash imkoniyati tug'iladi;

o'qituvchilar uchun bo'sh o'zlashtiruvchilarga ko'maklashish, bilimdon o'quvchilarga e'tibor qaratish imkoniyati vujudga keladi;

o'qitish sifati umumiy darajasi pasayishining oldi olinadi;

axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishga qiynaladigan, murakkab o'quvchilar bilan samarali ishlash imkoniyati tug'iladi;

yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarda o'quv jarayonida tezkor harakat qilish imkoniyati vujudga keladi;

o'quvchilarda o'zligini anglash, o'z layoqatlariga ishonch, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda esa, o'qishlaridagi muvaffaqiyatlaridan ruhlanish, yomon illatlardan xalos bo'lish istagi paydo bo'ladi.

Pedagogika bo'yicha o'quv qo'llanmalarida individual yondashuv ta'limning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi.

Ta'limni individuallashtirish – o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishning har qanday shakllari va usullari qo'llash asosida o'quv jarayonini tashkil etish hisoblanadi. Individual ta'limning pedagogik-psixologik jihatlari quyidagilardan iborat:

1) minimal o'zgartirish va guruhli o'rganishdan to'liq mustaqil o'rganishgacha;

2) shakllar, maqsadlar, o'qitish usullari va o'quv materialining xilma-xilligi;

3) barcha fanlarda, ayrim fanlarda, o'quv materialining alohida qismlarida individual ta'limdan foydalanish.

O'qitishga individual yondashish tamoyili o'qituvchidan quyidagilarga rioya etishni talab etadi:

1) o'quvchilarning individual xususiyatlari: temperamenti, xarakteri, qarashlari, didi, odatlarini doimiy ravishda o'rganib chiqish va yaxshi bilish;

2) tafakkur tarzi, motivlari, qiziqishlari, munosabati, shaxs yo'nalishi, hayotga, mehnatga munosabat, qadriyat yo'nalishlari, hayot rejalari kabi muhim shaxsiy fazilatlar shakllanishining real darajasini bilish va diagnostika qila olish;

3) har bir o'quvchini doimiy ravishda shaxsning izchil rivojlanishini ta'minlaydigan va qiyinligi bo'yicha tobora qiyin bo'lgan ta'lim faoliyatiga jalb qilish;

4) maqsadga erishishga xalaqit berishi mumkin bo'lgan sabablarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, agar bu sabablarni o'z vaqtida aniqlash va

bartaraf etishning iloji bo'lmasa, mavjud yangi sharoitlarga qarab mashg'ulot taktikasini zudlik bilan o'zgartirish;

5) imkon qadar shaxsning o'z faoliyatiga tayanishiga erishish;

6) o'z-o'zini tarbiyalashning maqsadlari, usullari, shakllarini tanlashda yordam beradigan shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashgan ta'limni tashkil eta olish;

7) o'quvchilarning muvaffaqiyatga olib keladigan mustaqilligi, tashabbuskorligi, havaskorlik faoliyatini rivojlantirish.

Individuallashtirishning asosiy maqsadi bolaning individualligini saqlash va yanada rivojlantirish, o'ziga xos, noyob bo'ladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Ta'limda individual yondashuvni qo'llash natijasida quyidagilarga erishiladi:

ayrim o'quvchilarni o'qitishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;

barcha o'quvchilarning kuchli va kuchsiz qobiliyatlari hamda imkoniyatlarini rivojlantirish.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich ta'limga individual yondashuvni tadbiiq etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon va unga ta'sir etuvchi omillar, boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish texnologiyasining pedagogik-psixologik imkoniyatlari, boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiiq etish shakl, usul, vositalari xususida fikr yuritiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish o'z ichiga quyidagi shart-sharoitlarni oladi:

a) o'quvchilarning aqliy, jismoniy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va aniqlash, bilim, ko'nikma, malaka, darajalarini aniqlash, umumiy va shaxsiy iqtidorlarini topish, o'qish malakalarini har xil tashxis metodlari yordamida o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash;

b) o'quvchining individual rivojlanish rejasi va maqsadga intilish bo'yicha tashkiliy ishlari, individual dastur asosida o'qitish shaklini belgilash. Bu o'qish mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi, kasbga yo'naltiradi. O'quvchining individual, mustaqil ishlari, faoliyati, o'z ustida ishlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazoratni ham qamrab oladi;

v) o'quvchining bilish faoliyatlariga qiziqishlari, umumiy va shaxsiy, maxsus ko'nikmalarini hisobga olgan holda individual topshiriqlar to'plamini tayyorlash va ularni bajarish uchun ishchi boshqaruv guruhini tayinlash; bunda o'qitilish darajasini hisobga olgan holda mavjud xato va kamchiliklarni yo'l-yo'lakay bartaraf etish lozim;

g) o'qitishning muayyan bosqichida o'quvchi faoliyatini individuallashtirish, yangi mavzuni o'tishdan avval o'quvchilardagi mavjud bilimlarni aniqlash, yangi mavzuni tushuntirishda ularning imkoniyatlari darajasini hisobga olish, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash, o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarni tatbiiq etishdagi jadallik va faoliyat sifatini aniqlash, uy vazifalarini bajartirish orqali ularning mustaqil ishlashga layoqatlilikini tekshirish, ijodiy qobiliyat darajasini aniqlash, o'qitish jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish nazarda tutiladi.

Har bir darsning mavzusi, muayyan bo‘limning umumiy maqsadi va alohida mavzuni ifodalovchi o‘quv faoliyatining o‘ziga xos maqsadi o‘quv predmeti bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturida ifodalangan umumiy maqsadga mos kelishi kerak.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga individual yondashishni ta‘minlashning quyidagi asosiy vazifalari belgindi:

1. O‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarning orqada qolishlarini oldini olish.

2. O‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashni ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish kerak.

O‘quv jarayonini individuallashtirish muammosining maqsadi – o‘quvchining bilimlarni o‘rganish jarayonidagi o‘zgarishlari orasidagi nomutanosiblikdir.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etishda:

Birinchidan, guruhlarda ishlaganda, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda, har bir o‘quvchi bilan yakkama-yakka ishlaganda ularning shaxsiy xususiyatlari doimo o‘qituvchi diqqat markazida turishi hisobga olinmog‘i kerak.

Ikkinchidan, o‘quvchi bilan muloqot olib borganda ham uning o‘ziga xosligi diqqat markazida turishi kerak.

Uchinchidan, ta‘lim jarayonida ham uning qobiliyati, imkoniyatlari nazarda tutilishi kerak.

To‘rtinchidan, pedagogik, psixologik jarayonlarni olib borish o‘quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini ko‘zda tutishi kerak.

Darslarda individual yondashuvni tadbiq etish o‘quvchilarni ham, o‘qituvchilarni ham qanoatlantirishi uchun muayyan talablarga javob berishi kerak. Ular quyidagilar:

1. Muayyan dars loyihasida bilim va tushunchalarning o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, uni o‘quvchilarga taqdim etish maqsadi aniq ifodalanishi kerak.

2. O‘quv jarayoniga qo‘yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o‘quv materiallari izchil tarzda o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga tamoyili asosida tanlanishi lozim.

O‘quvchining individual tayyorgarligini ta‘minlashda qo‘yidagilarga e‘tibor berish kerak:

1) o‘quv faoliyatini tashkil etish; bunda ta‘lim jarayonida o‘quvchining qobiliyatiga xos uslub, vosita, o‘qitish sur‘atini belgilash;

2) turli xil o‘quv metodik, pedagogik-psixologik va tashkiliy-boshqaruv ishlarda individual yondashuvni tatbiq etishni ta‘minlash lozim.

Individuallashtirish ta‘lim texnologiyasi bunday tashkil etilgan o‘quv jarayonida individual yondashuv va o‘qitishning individual shakli ustunlik qiladi. Individual yondashuv didaktik tamoyil sifatida mavjud bo‘lgan barcha texnologiyalariga asoslangan holda tatbiq etiladi. Shuning uchun bunday yondashuvni “Kirishuvchan texnologiya” deb atash mumkin.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etishda ta‘lim maqsadidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda quyidagilar shakllantiriladi: bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ishtiyoq, o‘qish mayllari, ilmiy dunyoqarash, u

yoki bu fanga nisbatan qiziqish kabilar. Individual yondashuvni tatbiq etish natijasida o'quvchilardagi ijobiy fazilatlar ortib, salbiy illatlari yo'qolib boradi, o'quvchilarda mustaqil ishlash faoliyati tarkib topadi.

O'quvchi individualligining ortishida quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olish lozim:

fikrlash jarayonining rivojlanish darajasi;

o'quv-biluv faoliyati xarakteri;

ijodiy faolligi;

o'qituvchining rahbarlik usuli.

1- jadval

O'quvchilarning individual o'quv faoliyati turlari

O'quvchilar individualligini o'rganishga yordam beradigan asosiy ko'rsatkichlar	Darajalar	Har bir daraja bo'yicha o'quvchi o'quv qobiliyatining qisqacha tavsifi
Fikrlash imkoniyatining darajasi	Past (I)	O'quv topshiriqlari tartibi o'quvchilarga tayyor holatda taqdim etiladi, ko'rgazmalarni taqqoslash.
	O'rta (II)	O'zlashtirilgan bilimlar tartibi o'quvchilar tomonidan esga tushiriladi yoki qisman tiklanadi. Ko'rgazmalar ishlatiladi.
	Yuqori (III)	O'zlashtirilgan bilimlar tartibi mustaqil o'rnatiladi, ko'rgazmadan foydalanilmaydi, xulosalar yangi mavzu bilan bog'lanadi.
O'quvchi individual bilish faoliyatining tabiati	Mahsuldor (I)	O'quvchilar muayyan o'quv fani bo'yicha ma'lum darajada bilimdonlikka hamda o'zlashtirgan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ega. Bunda o'quv faoliyati berilgan namuna yordamida bajariladi.
	Qisman izlanuvchan (II)	O'quvchilar o'quv topshiriqlarini o'qituvchining ko'magisiz bajaradilar, tartib bilan murakkab vazifalarni hal etishga intiladilar. Muayyan dars doirasida o'zaro uzviy bog'langan tushunchalarni egallashga erishadilar.
	Tadqiqotchilik (III)	O'quvchilar murakkab o'quv topshiriqlarini o'z farazlariga tayangan holda tez va mustaqil bajaradilar. Bir necha dars davomida o'tilgan mavzular orasida aloqadorlikni vujudga keltiradilar.
	Past (I)	O'quvchilar berilgan vazifalarni bajarishda shaxsiy tashabbus ko'rsatmaydilar.
	O'rta (II)	Faqat o'qituvchining bergan namunasi asosida ishlaydilar.

Ijodiy faollik	Yuqori (III)	O'quvchilar o'z faoliyatlarini mustaqil rejalashtiradilar hamda vazifaning yechimi va yangiligini aniqlay oladilar. Ular egallagan bilimlarni hosil qilingan yangi ko'nikmalar orqali darsdan tashqari ishlar, mustaqil topshiriqlar bajarishda namoyon qiladilar.
O'qituvchi tomonidan o'quvchining individual faoliyatini boshqarish	Yuqori (I)	Bilish faoliyati mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Ular barcha faoliyat turlarini o'qituvchi ko'magi yordamida amalga oshiradilar
	O'rta (II)	Bilish faoliyatining rivojlanishi qisman izlanuvchanlik darajasi bilan belgilanadi. O'qituvchi tomonidan berilgan tushunchani izohlash, uning ta'rifini bayon qilishi bilan cheklanadilar. Masalan, dukkakkilar oilasiga loviya, no'xat, mosh kabilar kiradi
	Past (III)	Tadqiqotchilik faoliyatining biluv jarayonidagi o'rni o'quvchilar bilimlarini chuqur, keng va mustaqil o'rganib, ko'nikmalar hosil qilish bilan ajralib turadilar.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'quv faoliyatini 4 turga bo'lish mumkin: mahsuldor, qisman-izlanuvchan, tadqiqotchilik va ijodiy.

Bunda turli murakkablikdagi savol va topshiriqlar quyidagilarni ajratishga yordam beradi:

1) o'quvchining asosiy fikrlash jarayonining boshlang'ich darajasini aniqlash; bunda o'qituvchi quyidagi metodlardan unumli foydalanadi: taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish kabilar.

2) o'quvchilar o'quv-biluv faoliyati tabiatini aniqlash uchun ularning qobiliyati va imkoniyatiga qarab guruhlarga ajratishda tashxislash usulidan foydalanadi.

O'quvchi shaxsiga individual yondashish faqat mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida emas, balki o'quv-biluv jarayonining barcha bosqichlari, chunonchi, yangi o'quv materiallarini taqdim qilish, mustahkamlash, takrorlashlar, uy vazifasi berish hamda darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi zarur.

O'quvchilar o'quv faoliyatida nafaqat ichki ruhiy holatlar, balki unga ko'rsatiladigan tashqi ta'sirlar ham muhim o'rin tutadi. Shuning uchun o'quvchining o'quv imkoniyatlarini ichki va tashqi imkoniyatlarga ajratib olgan holda o'rganilgan.

O'quvchining ichki o'quv imkoniyatlariga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi:
o'qishga bo'lgan shaxsiy qiziqishi, fikrlash va esda saqlash qobiliyati;
o'quvchida mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar zaxirasi;
o'quv mehnatining natijasi, ishlash qobiliyatining darajasi, mas'uliyat mavjudligi;

o'qish istaklarining mavjudligi.

O'quvchi real o'quv imkoniyatlarining tashqi tomoni esa:

dars jarayonida unga ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirlar, jumladan, o'qituvchilar, sinf o'quvchilari, o'qish jarayonini moddiy-texnik ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan turli xil omillar;

oila va atrof-muhitning ta'siri kabilardan iborat.

O'quvchining o'quv imkoniyatlarini har tomonlama va to'g'ri baholash uzoq muddatli kuzatish natijasida amalga oshadi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari samaradorligini quyidagilar asosida aniqlash lozim:

1. O'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni va sharoitlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash.

2. O'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini individuallashtirishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarining tanlanganligi.

3. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv faoliyatini loyihalashtirish.

4. O'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli tarbiyaviy maqsadlarni qo'yish va ularni yechish.

5. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonida muhim bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar va imkoniyatlarni hisobga olish.

O'quvchilar individual faoliyatini boshqarishning mavjud ta'lim maqsadiga mos keladigan bir qator variantlari taqdim qilindi:

1 tur. 1. O'quvchi oldiga umumiy topshiriqlar qo'yish orqali uning individual faoliyatini boshqarish. 2. Faol o'zlashtiruvchi, tezkor fikrlovchi o'quvchilar faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgan individual topshiriqlar berish.

2 tur. 1. Umumiy topshiriqlar. 2. Qiziqarli topshiriqlar: a) oson bajariladigan topshiriqlar; b) o'rtacha murakkablikdagi topshiriqlar; v) nisbatan qiyin bajariladigan topshiriqlar.

3 tur. Kuchaytirilgan topshiriqlar: a) nisbatan yengil topshiriqlar; b) o'rtacha murakkablikdagi topshiriqlar; v) murakkab topshiriqlar.

4 tur. Murakkablashtirilgan topshiriqlar: a) nisbatan yengil bajariladigan topshiriqlar; b) o'rtacha murakkablikdagi topshiriqlar; v) nisbatan qiyin bajariladigan topshiriqlar.


Individual o'quv topshiriqlarining quyidagi turlarini tavsiya qilindi:

1) o'quvchilarning bilim darajasi, aqliy rivojlanishi, ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda tanlangan o'quv topshiriqlari;

2) o'quvchilarning umumiy va alohida qobiliyatlarini nazarda tutib belgilangan o'quv topshiriqlari; 3) o'quvchilarning alohida qiziqishlarini hisobga olib tuzilgan o'quv topshiriqlari kabilar.

O'quvchi o'quv topshiriqlarini bajarishga majburligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunga qadar o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlash sohasida bir qator muammolar va kamchiliklar mavjud. Shunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun individual o'quv topshiriqlarining quyidagi ko'rinishlarini tavsiya etildi:

1. O'qituvchi tomonidan belgilangan majburiy o'quv vazifalari. 2. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan muqobil topshiriqlar. 3. O'qituvchi tomonidan ixtiyoriy bajarish uchun berilgan topshiriqlar. 4. O'quvchining o'zi ixtiyoriy tanlaydigan o'quv topshiriqlari.



1-rasm. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish modeli

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish o'qituvchining sinf jamoasi bilan yanada yaqinroq bog'lanishiga imkon beradi. Mazkur jamoada o'z "men"ini namoyish qilish, shaxsga aylanishning yorqin istiqbollarini vujudga keltiradi.

Individuallashtirish ta'lim kelajakda o'quv-biluv jarayonini to'liqroq tabaqalashtirishga imkon yaratadi, bunda jamiyatning talabi va shaxsning kamoloti inobatga olinadi. Tabaqalashtirilgan o'qitish turli shakllardan iborat, xususan, tabaqalashtirilgan vazifani, natijalarni rejalatirish amalga oshirish va muhokama qilishni guruh bo'lib birgalikda o'quvchilar faoliyati bilan amalga oshirish shaklida bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual yondashishni ta'minlashning quyidagi asosiy vazifalarini belgilash lozim: 1. O'quv materialini yaxshi o'zlashtirmaydigan o'quvchilarning orqada qolishlarini oldini olish. 2. O'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashni ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish kerak.

Ta'limda o'quvchilarning o'ziga xos individual psixologik-pedagogik xususiyatlari: qobiliyatlari, qiziqishlari, intilishlari, o'qish mayllari, o'qishga tayyorgarligi va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayonida individual xususiyatlar quyidagicha inobatga olinadi: o'quvchilarga ularning bilim darajasi va boshqa xususiyatlariga mos keladigan o'quv topshiriqlari taqdim etiladi. Bilimi kuchliroq o'quvchilarga murakkabroq, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarga esa oddiyroq topshiriqlar beriladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etishda o'qituvchi jamoaviy, guruhli va individual ish shakllarini tashkil etish, bunda o'quvchilarning individual tayyorgarliklariga alohida e'tibor berishi lozim.

Dissertatsiyaning **"Boshlang'ich ta'limga individual yondashuvni tadbiiq etishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmning samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobida boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi hamda boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan.

Shakllantirilgan guruhlarda tajriba-sinov fanlarda o'quv mashg'ulotlarini samaradorligi uchun olingan test va topshiriqlar natijalari orqali aniqlandi va o'quvchilar bilim darajasining yakuniy tahlil natijalari quyidagicha ifodalandi (quyida keltirilgan jadvallarga qarang). Bu natijalar asosida har uchta viloyat ta'lim muassasalari uchun alohida empirik qiymatlar tekshirilib, matematik-statistik tahlil qilindi. Olib borilgan tadqiqot ishlari Buxoro viloyatining umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tajriba-sinov ishlarida jami 234 nafar, jumladan, tajriba guruhida 116 nafar, nazorat guruhida esa 118 nafar; Namangan viloyatining umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tajriba-sinov ishlarida jami 207 nafar: tajriba guruhida 102 nafar, nazorat guruhida esa 105 nafar hamda Sirdaryo viloyatining umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tajriba-sinov ishlarida jami 208 nafar: tajriba guruhida 109 nafar, nazorat

